



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 3

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





TASVIRIY SAN'AT DARSLARI ORQALI MANZARA JANRIDA ISHLASHDA HAVO PERSPEKTIVASIGA TO'G'RI YONDASHUV

Olimov Anvarjon Mamirovich

Qo'qon universiteti, Ta'lim kafedrası o'qituvchisi

aolimov321@gmail.com

ORCID: 0009-0003-7395-5246

Annotatsiya: Mazkur maqolada tasviriy san'at ta'limida manzara janrini o'rgatish jarayonida havo perspektivasining o'rne, u orqali o'quvchilarda fazoviy tafakkur, estetik idrok va kuzatuvchanlikni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Manzara tasvirida obyektlarning joylashuvi, masofa hissi, yorqinlik va rang ohanglarini to'g'ri berish orqali havo perspektivasiga erishish yo'llari nazariy va amaliy asosda tahlil qilinadi. Pedagogik tajriba va ilg'or usullar asosida o'qituvchilarga samarali tavsiyalar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: Manzara janri, havo perspektivasi, fazoviy tasavvur, rang ohangi, estetik tarbiya

Abstract: This article highlights the importance of aerial perspective in teaching the landscape genre within visual arts education. It discusses how spatial thinking, aesthetic perception, and observational skills can be developed through the study of landscapes. The article analyzes both theoretical and practical approaches to achieving aerial perspective by correctly depicting object placement, a sense of distance, brightness, and color tones. Effective teaching recommendations based on pedagogical experience and advanced methods are provided for educators.

Keywords: Landscape genre, aerial perspective, spatial perception, color tone, aesthetic education.

Аннотация: В данной статье освещается значение воздушной перспективы в обучении жанру пейзажа в рамках преподавания изобразительного искусства. Рассматриваются вопросы развития у учащихся пространственного мышления, эстетического восприятия и наблюдательности. Анализируются теоретические и практические способы достижения воздушной перспективы через правильную передачу расположения объектов, ощущения расстояния, яркости и цветовых оттенков. Педагогический опыт и передовые методы послужили основой для эффективных рекомендаций для учителей.

Ключевые слова: Жанр пейзажа, воздушная перспектива, пространственное восприятие, цветовой тон, эстетическое воспитание.

KIRISH

Tasviriy san'at darslari o'quvchilarning faqatgina rasm chizish bo'yicha amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish bilangina cheklanib qolmaydi, balki





ularning estetik didi, badiiy idroki va vizual tafakkurini shakllantirishda ham muhim o'rin tutadi. Bu darslar orqali o'quvchilar atrof-muhitdagi hodisa va manzaralarni kuzatish, ularni badiiy obrazga aylantirish, real voqelikni tasviriy vositalar orqali ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Xususan, manzara janri-o'quvchilarni tabiat go'zalligini anglash, unga mehr bilan qarash, rang-barang tabiiy hodisalarni kuzatish va ularni san'at asari tarzida gavdalantirishga yo'naltiruvchi eng samarali yo'nalishlardan biridir. Ushbu janr orqali ular tabiat bilan bevosita estetik muloqotga kirishadi, bu esa o'z navbatida did, sezgirlik, badiiy tafakkur va tasviriy ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ayniqsa, manzara tasvirida havo perspektivasini to'g'ri tushunish va undan foydalanish o'quvchilarning fazoviy tasavvurlari, chuqurlikni ko'ra bilish va badiiy realizmga intilishlarini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Havo perspektivasi yordamida manzaraning chuqurligi, kengligi, masofa hissi, yorug'lik va ranglarning asta-sekin o'zgarishi orqali obyektlarning yaqin-yiroqligi badiiy jihatdan ifodalanadi. Bu esa o'quvchiga nafaqat rasm chizishda texnik yondashuvni, balki nazariy asoslarni ham puxta o'zlashtirish imkonini beradi. Havo perspektivasining san'atdagi ahamiyati haqida Petrov (2018) o'z tadqiqotida shunday yozadi: "Aynan havo perspektivasi vositasida rassom tabiatning chuqur va keng qamrovli tasvirini yaratadi; bu esa tasvir realizmini ta'minlaydi".

Havo perspektivasi tushunchasi va mazmuni. Havo perspektivasi — bu tasviriy san'atda chuqurlikni, masofa va fazoviy munosabatlarni ifodalashda qo'llaniladigan muhim badiiy vositadir. Ushbu uslub yordamida rasmda yaqin va uzoq masofadagi obyektlar orasidagi tafovut tabiiy va ishonarli tarzda aks ettiriladi. Havo perspektivasining mohiyati shundaki, manzara ichidagi obyektlar masofaga qarab o'z shaklini, rang intensivligini, aniqligini va kontrast darajasini o'zgartirib boradi. Bu esa rasimga chuqurlik, hajm va realistik ko'rinish bag'ishlaydi. O'rta asrlardan boshlab, ayniqsa

Uyg'onish davrida bu texnika san'atda keng qo'llanila boshladi. Jumladan, Leonardo da Vinchi o'z asarlarida havo perspektivasini mukammal darajada qo'llab, fazoviy ifoda va ranglar o'zgarishi orqali manzaraning tabiiylik darajasini oshirishga erishgan.

Shuningdek, rus manzara rassomligi vakillaridan biri bo'lgan





Aleksey Savrasovning “Laylaklar keldi” kabi asarlarida ham havo perspektivasining yorqin namunalari uchraydi. U uzoqdagi ob’ektlarni xira ranglarda, kontursiz, kam detalli tasvirlab, tomoshabinda kenglik va chuqurlik hissini uyg’otishga erishgan. Bunday texnik yondashuv, ayniqsa bolalar bilan ishlashda manzara janrini o’rgatishda o’ta foydalidir, chunki u fazoviy idrokni rivojlantiradi va tasviriy fikrlashni chuqurlashtiradi. Eshmurodov (2021) tomonidan keltirilganidek, havo perspektivasining asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

- ✓ *Ranglarning xiralashuvi* – uzoqdagi obyektlar rangi xira va sovuq tusda tasvirlanadi;
- ✓ *Shakllarning aniqlik darajasi kamayishi* – masofa oshgan sari shakllar aniq konturlarini yo’qota boshlaydi;
- ✓ *Detallarning yo’qolib borishi* – uzoqdagi obyektlarda kichik tafsilotlar ko’zga tashlanmaydi;
- ✓ *Yorqinlik va kontrastning pasayishi* – yaqin obyektlar yorqin va kontrastli bo’lsa, uzoqdagilar sust va solishtirma ravishda ochroq ranglarda ifodalanadi.

O’quvchilarga manzara janrida rasm chizishni o’rgatishda nazariy bilimlarni amaliy mashg’ulotlar bilan uyg’unlashtirish muhim metodik tamoyildir. Ayniqsa, tasviriy san’at darslarida real hayotdan kuzatish asosida bajariladigan topshiriqlar orqali o’quvchilarning fazoviy tafakkuri, estetik didi va ranglar bilan ishlash ko’nikmalari samarali rivojlanadi. Bu borada quyidagi usullar pedagogik amaliyotda o’zining yuqori samarasini ko’rsatgan:

Plener darslari — ochiq havoda tashkil etiladigan darslar o’quvchilarga tabiiy manzarani bevosita kuzatish va uni tasvirga olish imkonini yaratadi. Bunday darslar o’quvchining fazoni to’g’ri idrok etishi, yorug’lik va soya, masofa va chuqurlik munosabatlarini jonli tarzda tushunib yetishida alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, plener darslari o’quvchini atrof-muhitga nisbatan estetik munosabatda bo’lishga o’rgatadi.

Bosqichli chizish usuli — manzara tarkibini tarkibiy qismlarga ajratgan holda

(orqa fon, o’rta fon, old fon) ishlash orqali o’quvchi tasvirda fazoviy qatlamlarni to’g’ri aks ettirishni o’zlashtiradi. Har bir qatlam uchun alohida rang tanlash, masofa va yoritilish darajasini hisobga olish, obyektlarning shaklini soddalashtirish yoki detallash orqali realistik ifoda yaratish mumkin. Masalan, uzoqdagi tog’lar moviy-yashil yoki kulrang ranglarda, o’rta plandagi ekinlar ochroq tushlarda, old fonidagi daraxtlar esa to’q yashil, jigarrang va aniq chiziqlar bilan tasvirlanadi.

Ranglar uyg’unligi ustida ishlash — manzara tasvirida sovuq va iliq ranglarning uyg’unlikda qo’llanishi chuqurlik va fazoviylikni kuchaytiradi. O’quvchilarga ranglar psixologiyasi, yorug’lik manbai, atmosfera ta’siri va ranglar o’zgarishi haqida nazariy bilim berish, bu bilimlarni rasmga tatbiq





qilish ularning ijodiy tafakkurini faollashtiradi. G'afurov (2019) o'z tadqiqotida ta'kidlaganidek, ranglar orqali obyektlar orasidagi masofa, havo holati, vaqt va kayfiyatni badiiy ifodalash mumkin. O'qituvchi ushbu yondashuvlarni dars mazmuniga integratsiya qilgan holda har bir bosqichni o'quvchilarga chuqur tushuntirishi, kuzatish asosida mustaqil ishlashga yo'naltirishi lozim. Bunda nafaqat texnik topshiriq, balki san'atga xos hissiy idrok, go'zallikni ko'ra bilish va ifodalash ko'nikmalari ham rivojlanadi. Bu esa fazoviy tasavvur va estetik tafakkurni shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi.

AMALIY VA METODIK TAVSIYALAR

Havo perspektivasini o'rgatishda birinchi tavsiya – **ko'rgazmali vositalardan foydalanishdir**. Manzara janrida havo perspektivasini o'rgatishda o'quvchilarda fazoviy idrokni shakllantirish, chuqurlikni ko'rish, yorug'lik va masofa o'zgarishini anglashga qaratilgan metodlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada mashhur rassomlarning asarlaridan ta'limiy material sifatida foydalanish samarali natija beradi. Masalan, Aleksey Savrasovning "Qarg'alar uchib keldi" manzarasi havo perspektivasining yorqin namunasi bo'lib, unda uzoqdagi osmon va yaqin masofadagi daraxtlar o'rtasidagi rang farqlari, detallarning kamayib borishi aniq ko'zga tashlanadi. O'quvchilar ushbu asar asosida chuqurlikni ifodalovchi elementlarni tahlil qilish orqali nazariy tushunchalarni amaliy ko'nikmaga aylantiradilar.

Ikkinchi tavsiya – **qiyosiy tahlil metodini qo'llashdir**. **Qiyosiy tahlil usuli** orqali o'quvchilarga biror obyektning har xil masofadagi tasvirlarini taqqoslash topshirig'i beriladi. Bu orqali ular obyekt shaklining aniqligi, rangi va kontrasti qanday o'zgarishini kuzatadilar. Bu metod nafaqat idrokni, balki tahliliy fikrlashni ham rivojlantiradi. O'quvchi o'zi ko'rayotgan va chizayotgan obyektning manzaradagi joylashuvini chuqur tushunishga intiladi. Shuningdek, **tajriba darslarida** o'quvchilarga bir xil manzara uch xil masofada (yaqin, o'rta va uzoq fon) tasvirlanadi. Har bir fon uchun mos rang tanlash va tasvir detallarini o'zgartirish orqali havo perspektivasi samarali o'zlashtiriladi. Mahmudova ta'kidlaganidek, bu kabi tajribaviy yondashuvlar orqali o'quvchilar real manzara tasvirini badiiy ifodalashni amaliy yo'l bilan o'zlashtiradilar.

Uchinchi muhim tavsiya – **guash va akvarel texnikasidan to'g'ri foydalanishdir**. Har bir texnikaning o'z afzalliklari bor: guash orqali yaqin fonni ifodalashda aniq, to'q ranglar olish mumkin, akvarel esa yumshoq tuslar orqali uzoq manzara effektini berishga qulay. Bundan tashqari, **guash va akvarel texnikalaridan foydalanish** havo perspektivasini yetkazishda o'ta qulaydir. Guash bo'yog'i yordamida aniq va to'q shakllar chizilishi mumkin, bu oldingi fon uchun mos keladi, akvarel esa yumshoq va xira tuslarni hosil qiladi, bu uzoq fonni ifodalashda foydalidir. Ranglarning bu tarzda uyg'unlashuvi havo yengilligini, atmosferadagi tumanlik yoki yorug'lik tarqalishini tasvirlash





imkonini beradi. Bu texnikalarning ustunliklari haqida o'quvchilarga tushuntirish berish, ularni tajriba orqali tatbiq ettirish dars samaradorligini oshiradi.

To'rtinchi tavsiya – **differensial yondashuvni qo'llashdir**. O'quvchilarda fazoviy tasavvur, rang sezuvchanlik va chuqurlikni anglash kabi badiiy ko'nikmalar bir xilda rivojlanmaydi. Har bir bola tasviriy ifodalashga o'ziga xos idrok va estetik qarashlar bilan yondashadi. Shu bois tasviriy san'at darslarida individual rivojlanish darajasini hisobga olgan holda **differensial yondashuvni** qo'llash muhimdir. Bu yondashuv o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga, rasm chizish ko'nikmalariga va idrok salohiyatiga qarab dars mazmunini moslashtirish imkonini beradi.

Masalan, rasm chizishda yangi bosqichni boshlayotgan yoki badiiy idroki hali to'liq shakllanmagan o'quvchilarga oddiy kompozitsiyalarga ega, kam planga asoslangan, sodda shakllarda ifodalangan manzaralar tavsiya etiladi. Bu ular uchun havo perspektivasini bosqichma-bosqich anglash va real tasvirlar bilan tanishish imkonini yaratadi. Aksincha, ilg'or o'quvchilarga murakkab geometrik shakllar, ko'p planga ega kompozitsiyalar, ranglar o'zgarishini aniq talqin etish talab etiladigan vazifalar berilishi zarur. Bunday metodika orqali nafaqat ijodiy fikrlash, balki muayyan texnik ko'nikmalar, masalan, yorug'lik va soyaning to'g'ri taqsimoti, obyektlar orasidagi fazoviy munosabatlar va ularning masofaga qarab rangda qanday o'zgarishini tahlil qilish ko'nikmalari shakllanadi. Bu kabi individual yondashuv o'quvchilar orasida o'ziga ishonchni oshiradi, ularni manzara janrida ishlashga qiziqtiradi hamda har bir o'quvchining ijodiy rivojlanishini ta'minlaydi. Boshqacha aytganda, o'quvchilarning qobiliyati va imkoniyatlariga qarab topshiriq berish, ularni shaxsiy yutuqlari asosida rag'batlantirish o'qitish samaradorligini oshiradi.

XULOSA

Manzara janrini o'rganish orqali o'quvchilarning nafaqat tasviriy san'atga qiziqishi ortadi, balki ularning tabiatga bo'lgan estetik munosabati, fazoviy tafakkuri va badiiy tafsiri ham rivojlanadi. Ayniqsa, havo perspektivasiga to'g'ri yondashuv bu jarayonda muhim o'rin tutadi. U manzara tasvirlarida obyektlarning bir-biriga nisbatan joylashuvi, masofa va chuqurlikni ifodalash orqali rasmga realizm va jonlilik baxsh etadi. O'quvchilarning san'atni chuqur anglashida havo perspektivasi orqali manzaradagi rang va shakl o'zgarishlarini tahlil qilish asosiy ko'nikmalardan biridir. Bu esa darsda ko'rgazmali qurollardan foydalanish, plener darslarini tashkil etish, mashhur rassomlarning manzara asarlarini tahlil qilish orqali samarali amalga oshiriladi.

Shu boisdan, tasviriy san'at o'qituvchilariga dars jarayonida havo perspektivasi elementlarini **tizimli, bosqichma-bosqich va didaktik tamoyillarga asoslangan holda** qo'llash tavsiya etiladi. Shuningdek,





o'quvchilarning individual tayyorgarlik darajasiga mos differensial yondashuv, tajriba darslari va amaliy mashg'ulotlar orqali ularning fazoviy tasavvurini shakllantirishga alohida e'tibor berish lozim. To'g'ri metodik yondashuv orqali manzara janri darslarini estetik jihatdan boyitish, bolalarning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish hamda tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishini oshirish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, san'at ta'limining mazmunli va samarali bo'lishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Eshmurodov, A. (2021). *Tasviriy san'at darslarida innovatsion metodlar*. Samarqand: Zarafshon.
2. G'afurov, M. (2019). *Tasviriy san'at asoslari*. Toshkent: O'qituvchi.
3. Mahmudova, N. (2022). Havo perspektivasi va manzara janrining uzviyligi. *San'at va ta'lim*, 2(3), 45–49.
4. Petrov, V. I. (2018). *Fundamentals of landscape painting*. Moscow: ArtPress.
5. Safarova, N. (2020). Tasviriy san'at darslarida metodik yondashuvlar. *Pedagogik jarayon*, 4(1), 112–117.
6. Xudoyberdiyev, A. A. (2021). *Boshlang'ich ta'limda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi*. Buxoro: Buxoro nashriyoti.
7. Tolibov, J. (2020). Havo perspektivasining tasviriy ifodasi. *O'zbek san'ati jurnali*, 1(1), 63–67.

